

DEPOZIT SHARTNOMASI

“QULAY VALYUTA” MAHSULOTI BO‘YICHA

_____-sonli
(namunaviy shakl)

«__» _____ 20__ y.

Toshkent sh.

_____ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi _____ bir tomondan, bundan keyin Mijoz deb yuritiladi, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB nomidan _____ ishonchnoma asosida ish yurituvchi _____ BXO/BXM boshqaruvchisi _____, bundan keyin Bank deb ataladi, ikkinchi tomondan, birgalikda Taraflar deb ataladi, ushbu depozit shartnomasini (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagicha tuzdilar:

1. Shartnoma mavzusi

1.1. Mijoz _____ (_____) so‘m miqdorida pul mablag‘larini to‘lov asosida Bankka muddatli depozit (keyingi o‘rinlarda “depozit” deb yuritiladi) ko‘rinishida o‘tkazadi. Ushbu shartnoma depozit mablag‘i Bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan

1.2. Bank ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda depozit summasini o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish va u bo‘yicha foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

2. Depozitning shartlari

2.1. Depozit nomi: “Qulay Valyuta”;

2.2. Depozit turi: jamg‘arma, *(hisobvaraqqa qo‘shimcha mablag‘ kirim qilish imkoniyati mavjud)*;

2.3. Depozit valyutasi: AQSh dollari;

2.4. Depozitning minimal miqdori: 5 000 AQSh dollari;

2.5. Depozitning amal qilish muddati: 24 oy;

2.6. Depozitning yillik foiz stavkasi: 5 %;

2.7. Foizlarni to‘lash: depozitning amal qilish muddati davomida Mijozga Depozit buyicha foizlarni har oyda, oyning oxirgi kunini xisobga olgan holda xisoblab boriladi va keyingi oyning 5(besh) bank ish kuni davomida (*shartnomaning 2.3 bandiga asosan depozit valyutasida*) to‘lab boriladi. Agar to‘lovlarni o‘tkazish kuni dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, keyingi bank ish kunidan kechiktirilmagan holda to‘lab berilishi lozim.

2.8. Depozitni to‘ldirish imkoniyati: mavjud.

2.9. Depozit muddati tugashiga qadar pul mablag‘larini qisman qaytarish imkoniyati : mavjud.

2.10. Hisobvaraqqadan qisman mablag‘ chiqim qilish imkoniyati: depozit minimal miqdoridan oshgan qismi chiqim qilinishi mumkin.

2.11. Depozit muddatidan oldin qisman qaytarilganda: agar depozit *minimal miqdoridan oshgan qismini* muddatidan oldin chiqim qilsa, foizlar depozitdan haqiqiy foydalangan muddati uchun to‘lab beriladi.

2.12. Depozit muddatidan oldin to‘liq qaytarilganda: agar depozitning to‘liq miqdori (*minimal miqdori ham*) muddatidan oldin chiqim qilinsa, *minimal miqdorga* hisoblangan va to‘langan barcha foizlar asosiy depozit summasidan ushlab qolinadi:

2.13. Depozitning maksimal miqdori: Chegaralanmagan.

2.14. Mahsulotdan foydalanish sharti: boshqa bank mijozlari tomonidan depozitga mablag‘

joylashtirishda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB da xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochishi lozim.

2.15. Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Depozit shartlarida belgilangan boshqa shartlar hamda quyidagilar bilan mazkur depozit shartnomasini imzolash jarayonida tanishtirilganligi;

- Bank tomonidan depozitning asosiy shartlari to‘g‘risidagi axborot varaqasi taqdim etilganligi;

- Ikki yuz million so‘mgacha bo‘lgan depozit miqdori qonunchilikda belgilangan tartibda kafolatlanishidan xabardor ekanligi;

- “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, o‘z mansabdor shaxlarining shaxsga doir ma’lumotlari (shu jumladan, kredit tarixiga oid ma’lumotlar) Bank tomonidan ishlov berilishiga va uchinchi shaxlarga taqdim qilinishiga shartlarsiz va muddatsiz o‘z roziligini berganligini (shartnomaning ushbu sharti u bekor bo‘lgandan so‘ng ham o‘z kuchini saqlaydi);

- Naqd pulsiz shaklda kirim qilingan depozitlarni naqd pulda berilishida hamda depozit hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘larini boshqa banklarga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan bank operatsiyalari uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda komissiya olinishidan xabardor ekanligini.

2.16. Agar Mijoz muddatli va jamg‘arma depozitni muddati tugagunga qadar qaytarib berishni talab qilmoqchi bo‘lsa, u bu haqda Bankni depozitni olishni rejalashtirayotgan sanadan kamida bir oy oldin yozma tartibda xabardor qilishi lozim.

3. Depozitga foizlar hisoblash va to‘lash tartibi

3.1. Depozitga foizlar har kuni yillik bazaviy davr - 365 kundan kelib chiqqan holda hisoblab yoziladi. Foizlar har kuni hisoblab boriladi va oy yakunlanganidan keyin to‘lab beriladi.

3.1.1. Agar depozitning to‘liq miqdori (*minimal miqdori ham*) muddatidan oldin chiqim qilinsa, minimal miqdorga hisoblangan va to‘langan barcha foizlar qayta hisob kitob qilinib, asosiy depozit summasidan ushlab qolinadi.

3.2. Depozit summasiga foizlar kunlik hisoblanib, Mijozning nomiga ochilgan – “To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar” hisobvarag‘ida yig‘ib boriladi.

3.2.1. Bir oy to‘lgandan so‘ng foizlar, depozit qo‘yilgan sanadan keyingi oyning keyingi kunida mijozning talab qilib olinguncha xisob raqamiga o‘tkazib beriladi Mijozning 202%- “Talab qilib olguncha” hisobvarag‘iga elektron shaklda kirim qilinadi. Ushbu mablag‘larni Mijoz depozit shartnomasi shartlariga asosan mustaqil tasarruf etadi.

3.3. Saqlash muddati tugagandan keyin talab qilib olinmagan depozitlar Mijozning “Talab qilib olguncha” hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va bu davrlar uchun depozitga foizlar hisoblanmaydi.

3.4. Foizlar depozit mablag‘i Bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u Mijozga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra uning hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha bo‘lgan davrga hisoblanadi. Bunda foizlarni hisoblash tartibi “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga (2023-yil 29-sentabrdagi 3460-son ro‘yxatga olingan) muvofiq amalga oshiriladi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1 Mijozning majburiyatlari:

4.1.1. Mijoz ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 (ikki) bank kuni ichida 1.1-bandda ko‘rsatilgan pul mablag‘larini Bankning depozit hisobvarag‘iga o‘tkazishi shart.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. depozit muddati tugaganidan keyin depozit summasini talab qilish;

4.2.2. hisobvaraقدan qisman mablag‘ chiqim qilish imkoniyati bu depozit minimal miqdori (50 mln.so‘m)dan oshgan qismi bo‘yicha chiqim qilinishi mumkin;

4.2.3. ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq depozit hisobvarag‘ini to‘ldirish.

4.3. Bankning majburiyatlari:

4.3.1. Bank _____-sonli depozit hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘larni hisobga olish, shuningdek, Mijozning depozitining saqlanishi va u bo‘yicha foizlarning ushbu Shartnomaga muvofiq to‘liq hajmda to‘lanishini ta‘minlash majburiyatini oladi.

4.3.2. Depozit muddati tugagandan so‘ng, Bank Mijozga 1.1-bandda ko‘rsatilgan summani to‘liq qaytarish majburiyatini oladi. Ushbu Shartnoma bo‘yicha depozit summasi hisoblangan foizlar bilan birga.

4.3.3. Bank depozit sirini saqlash majburiyatini oladi. Mijozning roziligisiz bank siri bilan bog‘liq ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida alohida nazarda tutilgan hollardagina uchinchi shaxslarga berilishi mumkin.

4.3.4. Bank mijozga yoki u vakolat bergan shaxsga uning birinchi talabiga ko‘ra oxirgi hisobot sanasidagi oylik ko‘chirmalarni, shuningdek, mijozga yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxsga depozit mablag‘i olinganligini, foizlarni to‘lash va depozit summalarini qaytarilganligini tasdiqlovchi to‘lov hujjatlarini taqdim etishi shart.

4.3.5. Depozitni to‘liq yoki qisman muddatdan oldin olish bo‘yicha mijozdan talabnoma olingan taqdirda, Bank mijozga depozit summasini to‘liq yoki bir qismini talabnomaga muvofiq holda to‘lab berish majburiyatini oladi.

Bunda, Depozit hajmidan kelib chiqib, depozit hisobvarag‘idagi pul mablag‘ini tegishli tarmoq o‘zining moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib, murojaat kelib tishgan kunning o‘zida chiqim qilishi mumkin.

4.4. Bankning huquqlari:

4.4.1. Mijoz tomonidan depozit summasi muddatidan oldin talab qilib olinganda hisoblangan va to‘langan foiz summalarini shartnomada belgilangan miqdorda qayta hisob-kitob qilish hamda hisobvaraقدagi qoldiq mablag‘laridan chegirib qolish

4.4.2. O‘zbekistan Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mijoz hisobvarag‘i sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat ijrochisi va boshqa vakolatli organlar tomonidan xatlanganda (band solinganda) hisobvaraقد orqali amaliyot bajarishni to‘xtatish va hisobvarag‘ xatlanganligi oqibatida foydalanilmagan davr uchun foiz hisoblamaslik;

4.4.3. Depozit muddati tugagan kunning ertasidan kechiktirmagan holda yoki muddatidan oldin qaytarish talab qilinganda 30 bank kuni ichida depozit mablag‘ini mijozning talab qilib olinguncha hisobvarag‘iga o‘tkazish.

5. Korrupsiyaga qarshi shartlar

5.1. Taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o‘z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to‘liq ta‘qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta‘minlash, ma‘muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta‘minlashni to‘liq rad etadi. Tomonlar o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo‘lsa) talablariga amal qiladilar.

5.2. Taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida na o‘zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to‘lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to‘lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo‘lmasliklarini kafolatlaydi.

5.3. Mazkur bo‘limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo‘lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo‘limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens ishonch liniyasi” kanallari (tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz, Telegram messenger SQB AntiKor (@sqbantikor_bot) orqali amalga oshiriladi.

5.4. Ushbu bo‘lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma‘lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

5.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

6. Fors-major

6.1. Tomonlar, agar ular ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan fors-major holatlari (fors-major) yuzaga kelganligini isbotlasa, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Tomonlar na oldindan ko'ra, na oqilona choralar bilan oldini olishlari mumkin.

6.2. Shartnoma maqsadlari uchun fors-major holatlari deganda, tomonlarning oqilona nazorati ostida bo'lmagan, ushbu Bitimning bajarilishiga xalaqit beradigan hodisalar tushuniladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: yong'in, tabiiy ofatlar, blokadalar, zilzilalar, urushlar, tartibsizliklar, fuqarolar itoatsizligi, bundan mustasno. davlat organlarining harakatlari bilan nizolarning oldini olish mumkin bo'lgan holatlar. Shartnomani bajarish muddati holatlar va ularning oqibatlarini amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.3. Fors-major holatlariga tomonlarning ehtiyotsizligi yoki qasddan harakatlari natijasida yuzaga kelgan hodisalar kirmaydi. Fors-major holatlariga etarli mablag'ning etishmasligi yoki Shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaslik kiradi.

6.4. Fors-major holatlari natijasida ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmagan tomon boshqa tomonni bunday holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart.

7. Sanksiya xatarlarini boshqarishga qo'yiladigan talablar.

7.1. Ushbu Bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda har bir tomon o'z faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va qo'llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

7.2. Mijoz uchun hisobvaraqlar ochishdan oldin Bank barcha zarur ma'lumotlarni, shuningdek, tavakkalchiliklarni, shu jumladan, sanksiyalar tavakkalini aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni so'rashga haqli. Agar so'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmasa yoki to'liq taqdim etilmasa, bank Mijozga hisobvaraqlar ochishni rad etishga haqli.

7.3. Agar mijozga yoki uning bitimiga nisbatan sanksiyalar qo'llanilsa yoki sanksiyalar qo'llanilishi xavfi mavjud bo'lsa, bunday xavfni aniqlash uchun bank qo'shimcha ma'lumotni, shuningdek bitim bo'yicha zarur hujjatlarni so'rashga, shuningdek, summani cheklashga haqlidir. bitimni, bitimni cheklash yoki rad etish va shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

7.4. Bank mijozdan u bilan tuzilgan shartnoma asosida Mijoz va uning kontragentiga tegishli har qanday zarur ma'lumotlarni yoki hujjatlarni (kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro'yxati, aksiyadorlar tarkibi/) talab qilishga haqli. ta'sischi, ijro etuvchi organ, mansabdor shaxslar, xodimlar, mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlar, jo'natish hujjatlari,

mahsulotning texnik xususiyatlari, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar) kontragentning sanksiyalar ro'yxatida yoki yo'qligini aniqlash uchun va rad etishga haqli. zarur hujjatlar/ma'lumotlar mijoz tomonidan taqdim etilmagan hollarda mijozga xizmat ko'rsatish

7.5. Bank Mijoz nomidan to'lovlarni amalga oshirishda har qanday sanksiya yoki embargo natijasida pul mablag'larining qaytarilishi, bloklanishi, muzlatilishi, yo'qolishi yoki boshqa shunga o'xshash harakatlar uchun javobgar emas. Shuningdek, Bank har qanday sanksiyalar natijasida Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas. Mijoz har qanday sanksiyalar ro'yxatiga kiritilganda ushbu shartnomani muddatidan oldin bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

8. Tomonlarning javobgarligi

8.1. Depozit summasini o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun Bank Mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,01 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori o'z vaqtida qaytarilmagan summaning 10 foizidan oshmasligi kerak.

8.2. Jarima va penyalarni to'lash Tomonni ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8.3. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

9. Nizolarni hal qilish

9.1. Ushbu shartnomani bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar, agar iloji bo'lsa, tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

9.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning iloji bo'lmasa, taraflar ularni belgilangan tartibda shartnomani imzolagan BXO/BXM joylashgan hududdagi sudga ko'rib chiqish uchun taqdim etadilar.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Tomonlar kelishuvi bilan amalga oshiriladi va ular yozma ravishda tuzilgan va Tomonlar vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina amal qiladi.

10.2. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.3. Shartnoma har ikki tomon imzolagandan keyin va depozit hisobvarag'iga ushbu Shartnomada ko'rsatilgan miqdorda mablag' kelib tushgandan so'ng kuchga kiradi va Tomonlarning o'zaro majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

10.4. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa ham bir xil va bir xil kuchga ega. Har bir tomon ushbu Shartnomaning bitta nusxasiga ega.

Yuridik manzillar:

Mijoz

“ _____ ”

Manzil: _____

h/r _____

STIR _____

Bank: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB

MFO _____

Direktor

Bank

ATB “O‘zsanoatqurilishbank”

_____ BXO/BXM

Manzil: _____

STIR _____

MFO _____

Tel: _____
